

O‘SMIR YOSHDAGI QIZLARNING AYRIM-MORFOFUNKSIONAL KO‘RSATKICHLARINI O‘RGANISH.

F.N. Mirzabekova
Andijon davlat universiteti

O‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma‘nan baquvvat bo‘lishi uchun hozirgi kunda yurtimizda juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa qiz bola organizmini o‘rganish kelajak avlod salomatligini belgilashda sog‘lomlashtiruvchi proflaktik chora tadbirlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda shu sababli bolalar sportini, ayol-qizlar sportini rivojlantirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini tashkil qilish va valontyorlik ishlarini amalga oshirishga juda katta e‘tibor qaratib kelmoqda.

Andijon shahar ekologik muhitda yashovchi o‘smir qizlarning ayrim jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlarini o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot kuzatuv ishlarimizni muntazam davriy yoshga bog‘liq holda olib boramiz. Olingan ko‘rsatkichlardan yoshga oid fiziologiya fanlarida, sog‘lomlashtiruvchi me‘yoriy standart profilaktik chora-tadbirlarni olib borishda, sport maktablarida, oliy ta‘lim tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanishlari mumkin. Kuzatuvga 50 nafar sog‘lom 17 yoshli sport bilan shug‘ullanmagan qizlarni ixtiyoriy jalb qildik. Morfologik ko‘rsatkichlardan tana og‘irligi, bo‘y uzunligi, bosh aylana uzunligi, yelka kengligi, fiziologik ko‘rsatkichlardan yurak urushlar soni, o‘pkaning tiriklik sig‘imi kabi ko‘rsatkichlarni tanlab belgiladik, sababi bular asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. O‘lchov tadqiqot metodlari belgilangan standart biologik o‘lchov metodlari orqali amalga oshirildi. Olingan natijalar quyidagi tahlillarni hosil qildi. Tana og‘irligi o‘rganganimizda o‘rtacha $56,7 \pm 1,9$ kgni, bo‘yning umumiy uzunligi $165,4 \pm 0,89$ smni o‘rtacha hosil qilgan bo‘lsa, bosh aylana uzunligi o‘rtacha $56,1 \pm 0,31$ smni, yelka kengligi uzunligi ko‘rsatkichi o‘rtacha $39,6 \pm 1,93$ smni, bel aylana uzunlik ko‘rsatkichi o‘rtacha $68,04 \pm 1,3$ smni tashkil qildi.

Fiziologik ko‘rsatkichlardan yurak urushlar soni ko‘rsatkichi o‘rtacha $85,8 \pm 2,0$ tani, o‘pkaning tiriklik sig‘imi ko‘rsatkichi o‘rtacha $2292,0 \pm 54,4$ mlni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, 17 yosh o‘smir qizlarning ko‘rsatkichlari biologik qonuniyatlar asosida, ya‘ni o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari bo‘yicha amalga oshirilayotligini ko‘rishimiz mumkin. Yurak urushlar soni bir oz yuqori ekanligi bu yoshda gormonal o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini aytishimiz mumkin tadqiqot ishlarimiz yana davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Безруких М.М, Сонькин В.Д., Фабер Д.А Возрастная физиология. – Москва, АКАДЕМА, 2003. – 416 с.
2. Клемешева Л.С., Алиматов К.Т., Алламурадов Ш. И., Улғайиш физиологияси. – Тошкент, 2000
3. Арипова С.Х., Шахмурова Г. Ёш физиологияси ва гигиенаси Т 2010 й.
4. Linda S. Costanzo. Physiology- fifth edition. Virginia USA, - 2013.
5. Sodiqov Q, Aripova S.H., Shahmurova G.A “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. Т 2009у.
6. Сапин М.Р, Брыскина З.Г, Анатомия и физиология детей и подростков/ М.Р Сапин, З.Г Брыскина. М.: Академия, 2002.-453 с